

Bajarilishi ikki yilga mo'ljallangan innovatsion loyihalar mavzusi

“Texnika fanlari” yo‘nalishi

№	Innovatsion loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
5.	Quyosh panellaridan quvvatlanadigan zamonaviy issiqxonalar uchun o'ziyurar robot-purkagichni ishlab chiqish 	Tadqiqotning shakli: Innovatsion. Ilmiy-tadqiqot natijalari: - qishloq xo'jaligida qo'llanilayotgan robotlashtirilgan tizimlar tahlil qilinadi; - robotlashtirilgan qurilmaning tezligi va boshqa texnik ko'rsatkichlari, hisoblanadi; - qurilma uchun quyosh panelining quvvati aniqlanadi; - robot-purkagichning konstruksiyasi loyihalashtiriladi va tajriba namunasi ishlab chiqiladi; - robotlashtirilgan qurilmani issiqxonalarda qo'llash bo'yicha tavsiyalar va metodologiya tayyorlanadi. Natijalarni sinovdan o'tkazish: Robot-purkagichning tajriba namunasi elektrotexnika korxonasining tajriba maydonida va issiqxona sharoitida dala sinovlaridan o'tkaziladi. Ilmiy natijalarni chop etish: Tadqiqot natijalariga intellektual mulk obyektlari uchun tegishli hujjatlar olinadi. Nufuzli ilmiy jurnallarda va Web of Science hamda Scopus ma'lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi.